

**BUYUK MUTAFAKKIR, SO'Z MULKINING SULTONI
ALISHER NAVOI ASARLARIDA YOSHLARNING TA'LIM VA
TARBIYASIGA E'TIBORI**

**ВНИМАНИЕ ВЕЛИКОГО МЫСЛИТЕЛЯ, СУЛТАНА
АЛИШЕРА НАВОИ К ОБРАЗОВАНИЮ И ОБУЧЕНИЮ
МОЛОДЕЖИ**

**THE ATTENTION OF THE GREAT THINKER, SULTAN
ALISHER NAVOI TO YOUTH EDUCATION AND TRAINING**

Shoxnoza Buranova- JDPI o'qituvchisi

**Pulatova Xurshidaxon - JDPI 2 kurs
talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk mutafakkir, so'z mulkining sultoni Alisher Navoi asarlarida yoshlarning ta'lim va tarbiyasiga e'tibori, qo'shgan hissalarini, g'oyalari, pedagogik qarashlarida insonparvarlik g'oyasi aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, axloq, odob, xulq, mudarris, falsafiy masala

Аннотация: В данной статье осуществляется внимание великого мыслителя Алишера Навои к образованию и воспитанию молодёжи, а также вклад в педагогическую деятельность и идеи гуманизма

Ключевые слова: образование, воспитание, поведение, этика, образцовый, поведение, педагог, философская задача

Annotation: In this article, the attention of the great thinker Alisher Navoi to the education and upbringing of youth is carried out, as well as the contribution to pedagogical activity and the ideas of humanism

Keywords: education, upbringing, behavior, ethics, exemplary, behavior, teacher, philosophical task

Kirish

Bizning o'zbek xalqimiz bolajon xalqligi hech kimga sir emas. Moziyga nazar solgan insonga yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Mustaqilligimizdan so'ng bolajon xalqimiz yurtni obod qilish orqali bizni yosh avlodlarimiz bo'lmish bolajonlardir chetda qoldirmadi. Bolalar bog'chalari, maktablar, bolalar o'yingohlari qurildi. Ta'lim sohasiga ulug' allomlarimiz o'zlarini buyuk hissalarini qo'shganlar. Mutafakkir, ta'lim-tarbiya, axloq, odob, xulq, mudarris, falsafiy masala, axloqiy-ta'limiy, buyuk mutafakkir A.Navoiy til bilimlari, tarbiyani takomillashishiga katta e'tibor beradi. "Xamsa" "Mahbub ul qulub" kabi ta'limiy axloqiy asarlarida "Munojat", "Vaqfiya", "Majolis un nafois", "Muhokamatul ul-lug'atayn", " Qirq hadis" asarlarida tarbiyaga oid qarashlarini ifoda etadi. Uning pedagogik qarashlari insonparvarlik g'oyasi bilan sug'orilgandir. U xalq baxtini orzu qiladi, xalq manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'ydi:

Yuz jafo qilsa menga bir qatla faryod aylamam.

Elga qilsa bir jafo yuz qatla faryod aylaram.

Navoiy ilm-fanni yuksaltirish uchun "Ixlosiya" madrasasini tashkil etdi. Uning yonidan maktab ochib, o'z vaqfidan mablag' ajratdi. Madrasada qattiq intizomga amal qilinishini nazorat qildi. Ilm olishni insoniy burch deb biladi.

Kim olim esa nuqtada barhaq de oni,

Gar bazm tuzar bihishti mutloq de oni.

Har kimsaki, yo'q ilmga anga ahmoq de oni,

“Majlisdaki ilm bo'lsa uchmaq de oni ” , - ya'ni ilmi, oqil odam o'z maqsadiga erishish uchun har qanday qiyinchilikni yengib o'tadi.Navoiy orzu qilgan inson faqat ilmi bo'lish bilan qanoatlanib qolmasligi, balki u yana sabr-toqat, tavoze', adab, ishq va vafo hamda shu singari fazilatlarga ham ega bo'lishi lozimligini bir necha bor ta'kidlagan edi. Shoirning "Xamsa" siga kirgan "Xayrat ul abror" dostoni va "Mahbubul qulub" asarlari axloqiy didaktik asarlaridan hisoblanadi. "Hayratul abror" asarining 6- maqolat tarbiyaga bag'ishlanadi. Bolaga dastlab yaxshi ism qo'yish, so'ngra yaxshi muallimga berish,yaxshi tarbiya berishni maslahat beradi. Bolalarni esa ota-onani hurmat etishga chaqiradi:

Boshni fido ayla ato qoshiga

Jismni qil sadqa ano boshiga

Ikki jahoningga tilarsen fazo

Hosil et ushbu ikkisidan rizo

Tun-kuningga aylagali nur fosh

Birisin oy ayla,birisin quyosh.

Navoiy "Mahbub ul qulub" asari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarga insonparvarlik, xalqparvarlik g'oyasi yotadi. Asar uch qismdan iborat:

2-qismda odob va axloqqa oid masalalar yoritiladi. Odobli insonlar ulug'lanishi,hurmatli bo'lishi ko'rsatiladi.

3-qismda saxiylik, oliyjanoblik,muruvvat karam,vafo,muloyimlik kabi insoniy xislatlar tahlil etiladi.Qator maqollar keltiriladi:

"Tilga ixtiyotsiz-elga e'tiborsiz ",

"Bilmaganni so'rab o'rgangan olim,orlanib so'ramagan o'ziga zolim",

"Oz-oz o'rganib dono bo'lur,qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur".

Asosiy qism

Alisher Navoiy bilim olishda barcha fanlarni o'rganishni targ'ib etadi. Bundan u olimu fozillarni yig'ib,ular orqali ilm-fanni taraqqiy ettirishga e'tibor beradi. U bilimlarni tinmay uzluksiz o'rganish zarur,deydi. Har qanday bo'lsa ham, yosh bolalarga uning haqqi ko'pdir deya:

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Navoiy har bir yoshning aqliy kamolotga yetishida ilmu fanning ahamiyatini ko'rsatib o'tish bilan birga jamiyat taraqqiyotining asosi sanalgan ilm ahli, ilmni tarqatuvchi olimu fozillarni hurmat qilishga va ularning turmush darajasini yaxshilash masalalariga ham e'tiborni qaratdi.Adab kichik yoshdagilarni ulug'lar duosiga sazovor etadi va u duo barokati bilan umrbod baxramand bo'ladi. Adab kichkinalar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi.Adabdan muhabbatga bezak va pardoiz yetadi.U yaxshi fe'llarga qanoat,sabr,tavoze' va ishq haqida o'z fikrini to'ldiradi.O'quvchilarga falsafiy ma'noda bolalar qiziqishlarini oshirish maqsadida ilohiy ishq haqida tushunchalar qoldirgan...

Ilohiy ishq sohibi Alisher Navoiy

Navoiyning aksariyat she'larida va asarlarida tasavvufning yo ziyosi, yo safosi, yo ma'nosi o'rin egallagan. Faqat ishq emas balki, axloq-odob, rux, tasavvuf Navoiy dunyo qarashini ma'shalday yoritib turgan. Ishaq-muhabbat mavzusida ham irfoniy adabiyotning yetakchi mavzulardan biri bo'lgan. Navoiyning har bir asarlarini mutolaa qilsak unda ishq-

muhabbat mavzusi yaqqol ko'rinib turadi. Benazir inson, buyuk allomamiz A.Navoiy ijodiga yana bir nazar solsak. Uning asarlarida ishqiy, falsafiy, qahramonlik dostonlari mavjud. Navoiy yoqitutdek porlovchi, bejiri, nozik did bilan Xamsani yaratdi. Xamsani yaratdiyu o'zgacha bir nigoh bilan aks etdi. Xamsani boshqalardan farqli ravishda ona-tilisi turkiy tilda yozdi. O'zbek adabiyotida quyoshdek balx urdi. Navoiy oldingi Xamsa navislarni ishlarini takrorlamagan xolda o'zgacha bir "Xamsa" yaratadi. Navoiy Xamsaning o'zgachaligini ochiq-oydin takidlaydi. Jumladan, u "Farxod va Shirin" dostoni muqaddimasini shunday yozadi.

Ani nazm etki, tarhi toza bo'lg'ay,

Ulusga mayli beandoza bo'lg'ay

Yo'q ersa nazm qilg'onni xaloyiq

Mukarrar aylamak sendin ne loyiq?

Bu misralari orqali Navoiy "Xamsa" yozishdagi belgilab olgan o'z yo'riqlarini bayon etdi.

Shunday asar (nazm)

- doston yozginki, o'ziga xos (tarhi toza) bo'lsin, o'qigan odamlarga (ulusga) yangi, boshqa asarlarga o'xshamas (beandoza) ligi sezilib tursin. Aks holda (yo'q ersa) asari o'zgalar (xaloyiq) yozgandek bo'lsa, bunday takrorlash (mukarrar) senga loyiq emas. Yaxshisi, bunday asar yozmagan ma'quldir.

Tahlillar va natijalar

Besh dostonni o'z ichiga olgan Xamsni mahoratli shoirimiz tomonidan ikki yil davomida 51 ming misradan tashkil topgan bejirim, duru-

marjondek tizilgan dostonlardi yozib tugalladi Birinchi doston “Hayrat ul abror “falsafiy-ta’limiy doston, naqd uch asarni “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” ishq qissalari, “Sab’ai sayyor ishqiy-sarguzasht dostoni, so’ngisi esa “Saddiy Iskandariy” qahramonlik dostoni yaraldi. Bejizga naqd uch asar deb takidlamadim, chunki ilohiy ishq sohibi deb tarif berdim. Xamsa dostonlari ichidagi eng ishqiy asar “Layli va Majnun”dir deya olaman. Qays o’z ishq tufayli Layli visoliga yetishmoq uchun, bir telba Majnun nomini oldi. Ishq har kimga ham berilavermaydi. Ollah tomonidan berilgan in’omdir. Majnunni Otasi ishq biyobonida keltirib Ka’ba ziyoratiga olib borib Layliga bo’lgan ishqini ozroq bo’lsada so’ndirish niyati bilan yo’lga otladi. Afsus aksi bo’ldi, Majnun yaratgan egamdan yanada ishqqa giriftor qilishini so’radi. Qalbiga muhirlangan bu ishq ota-onasining faryodiyu hatto, o’limi ham Layliga bo’lgan ishqini zarracha so’ndira olmadi. Majnunni kundan kunga zayif tanasi majruhdek so’ndira bordi, lekin Majnunga bu holat ahamiyatsiz edi. Yor visoliga yetishmoq shunchalar kuchlik ediki u uchun jonidan kechiga tayyor. Bir biriga bo’lgan muhabbati bu dunyoga sig’madi. Layli bu hayotni tark etdi. Bu holatni bilgan Majnun, Layli huzuriga yetib borganida, Laylini jonsiz tanasini ko’rdi. Bu holatni ko’rgan Majnun bu istirobga dosh bera olmay bu hayotni Layli bilan tark etdi. Sof muhabbat egalari bo’lmish Majnun va Laylini bir qabrga qo’yidilar. N avoiy bu asar haqida motamnomani qanchalik cho’zgan bo’lsam, shuncha motamzada bo’ldim, nihoyat, yig’lab-yig’lab tugatdim....

Xulosa

Shunday qilib, so’z mulkingning sultoni, buyuk mutafakkir Alisher Navoining talim-tarbiyaga oid asarlari, pedagogik qarashlari, goyalari biz uchun ibrat maktabi bo’lib qoladi.

Adabiyotlar:

1. М.Усмонова. Алишер Навоий асарлари тилида қўлланилган дарахт маъносидаги сўзлар ва уларнинг лексик-семантик хусусиятлари. POLISH SCIENCE JOURNAL ISSUE 1 (34) Part 1 INTERNATIONAL SCIENCE JOURNAL WARSAW, POLAND Wydawnictwo Naukowe "iScience" 2021
2. М.Усмонова . Lexical and semantic properties of phytonyms in properties of phytonyms in the works of Alisher Navoi. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. 2021
3. М.Усмонова Alisher Navoiy asarlarida o'simlik nomlarining umumiy tavsifi. DİL VE EDEBİYAT ARAŞTIRMALARI (8) 2013 yil Turkiya